



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

QASHQADARYO VILOYAT
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-sentabr

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9 058,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **605,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **2,5 marta**) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 452,8** mlrd. so'mni (**6,7 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **594,6** mlrd. so'mni (**45,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 058,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2,7 %** ga kamayish kuzatildi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida Kitob va Qarshi tumanlardan tashqari qolgan barcha hududlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **93,3 %** va yirik korxonalar hissasiga **6,7 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **21,2 %** ulush bilan **1 923,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Muborak tumani **2,3 %** ulush bilan **205,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **8 452,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,7** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **93,3** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shahrisabz shahrida (**99,8** %), Koson (**99,3** %), Mirishkor (**98,7** %), Nishon (**98,7** %), Dehqonobod (**98,6** %) va Qamashi (**98,6** %) tumanlarida yuqori ulush qayd etildi.



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-sentabr	
2020-yil yanvar-sentabr	



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-sentabr oylariga viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (**102,7 %**), G'uzor (**101,9 %**) Qarshi (**100,8**), Kitob (**100,4**) tumanlarida va Qarshi shahrida (**100,2 %**) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	9 058,5	97,3	605,7	2,5 m.	8 452,8	93,3
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	427,3	101,9	7,1	2,2 m.	420,2	101,0
Dehqonobod	278,9	86,1	3,8	5,8 m.	275,1	85,1
Qamashi	455,0	96,7	7,1	9,5 m.	447,9	95,4
Qarshi	554,7	100,8	13,3	10,0 m.	541,4	98,6
Koson	771,8	93,9	5,1	16,4	766,7	93,3
Kitob	831,8	100,4	34,1	236,2 m.	797,7	96,3
Mirishkor	237,2	86,9	3,0	6,8 m.	234,2	86,0
Muborak	205,6	95,9	8,5	143,6	197,1	94,6
Nishon	295,1	93,4	3,8	4,1 m.	291,3	92,4
Kasbi	273,9	93,8	4,8	3,8 m.	269,1	92,6
Chiroqchi	756,5	102,7	19,7	10,1 m.	736,8	100,3
Shahrisabz	509,0	92,8	27,3	46,4	481,7	98,4
Yakkabog'	678,4	96,2	15,2	160,9	663,2	95,3
Qarshi sh.	1 923,5	100,2	451,3	2,9 m.	1 472,2	83,6
Shahrisabz sh.	859,8	96,6	1,6	74,0	858,2	96,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **147,1 %** ga o'sdi va **605,7 mlrd.** so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 452,8 mlrd.** so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,7 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,3 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Shahrisabz sh.	0,2	99,8
Koson	0,7	99,3
Mirishkor	1,3	98,7
Nishon	1,3	98,7
Dehqonobod	1,4	98,6
Qamashi	1,6	98,4
G'uzor	1,7	98,3
Kasbi	1,8	98,2
Yakkabog'	2,2	97,8
Qarshi	2,4	97,6
Chiroqchi	2,6	97,4
Muborak	4,1	95,9
Kitob	4,1	95,9
Shahrisabz	5,4	94,6
Qarshi sh	23,5	76,5

■ Yirik korxonalar □ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shahrisabz shahri (99,8 %), Koson (99,3 %), Mirishkor (98,7 %), Nishon (98,7 %), Dehqonobod (98,6 %) va Qamashi (98,4 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (23,5 %), Shahrisabz (5,4 %), Kitob' (4,1 %) va Muborak tumanlarida (4,1 %) kuzatilgan.



VILOYAT BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 745,7** ming so'm (2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,5** % ga kamaydi). Barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qarshi shahri (**6 959,1** ming so'm), Shahrisabz sh. (**6 159,4** ming so'm) va Kitob (**3 144,9**) ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Qashqadaryo viloyati	2 745,7	95,5
<i>hududlar:</i>		
G'uzor	2 084,4	99,8
Dehqonobod	1 884,7	84,3
Qamashi	1 672,2	94,9
Qarshi	2 226,7	98,7
Koson	2 691,9	91,9
Kitob	3 144,9	99,0
Mirishkor	1 974,7	85,2
Muborak	2 358,2	94,1
Nishon	1 922,4	91,2
Kasbi	1 388,1	91,9
Chiroqchi	1 829,5	100,2
Shahrisabz	2 290,5	91,7
Yakkabog'	2 569,8	94,7
Qarshi sh.	6 959,1	98,8
Shahrisabz sh.	6 159,4	95,4

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **594,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **45,4 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **377,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **75,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **216,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **39,0 %**) tashkil etdi.


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **377,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **216,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da
Qashqadaryo viloyati	594,6	100,0	377,7	100,0	216,9	100,0
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	29	4,9	17,4	4,6	13,2	6,1
Dehqonobod	20,1	3,4	5,3	1,4	10,7	4,9
Qamashi	49	8,2	41,3	10,9	15,8	7,3
Qarshi	21,9	3,7	3,8	1,0	21,6	10,0
Koson	64,3	10,8	41,8	11,1	20,1	9,3
Kitob	49,2	8,3	42,8	11,3	15,4	7,1
Mirishkor	27,5	4,6	7,2	1,9	1,2	0,6
Muborak	23,1	3,9	11,3	3,0	18,1	8,3
Nishon	23,4	3,9	14,7	3,9	6,9	3,2
Kasbi	22,2	3,7	2,9	0,8	7,6	3,5
Chiroqchi	107,7	18,1	89,2	23,6	59,8	27,6
Shahrisabz	20,7	3,5	3,7	1,0	15,8	7,3
Yakkabog'	27	4,5	28	7,4	2,0	0,9
Qarshi sh.	82,9	13,9	49,4	13,1	8,5	3,9
Shahrisabz sh.	26,6	4,5	18,9	5,0	-	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,9
mlrd. so'm

Tuzlamalar



138,7
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



12,6
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

51,4
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



14,8
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

12,0
mlrd. so'm



Tuxum

55,2
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

6,3
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **377,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**138,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

11,2
mlrd. so'm



Ziravorlar

69,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2,6
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **216,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **151,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **59,1** mlrd. so'mni, otlar **5,2** mlrd. so'mni, parrandalar **1,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,9 %** ni tashkil etib, **172,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **12,0 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **93,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘sish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2019-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2019-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	172 791,2	91,8	11 071,2	124,7	161 720,0	90,2
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	7 541,9	94,9	1112,1	70,7	6 429,8	100,9
Dehqonobod	3 433,7	92,4	-	-	3 433,7	92,4
Qamashi	12 263,7	88,2	-	-	12 263,7	88,2
Qarshi	12 708,0	92,4	-	-	12 708,0	93,0
Koson	4 614,3	89,5	-	-	4 614,3	89,5
Kitob	16 491,1	89,7	-	-	16 491,1	89,7
Mirishkor	3 179,6	87,9	-	-	3 179,6	87,9
Muborak	10 254,9	116,3	6 205,0	144,9	4 049,9	89,3
Nishon	5 125,1	90,9	-	-	5 125,1	90,9
Kasbi	2 420,9	91,5	-	-	2 420,9	91,5
Chiroqchi	9 009,3	90,7	-	-	9 009,3	90,7
Shahrisabz	8 776,8	88,2	-	-	8 776,8	88,2
Yakkabog'	8 350,5	92,0	-	-	8 350,5	92,0
Qarshi sh.	58 671,5	90,7	3 754,1	128,2	54 917,4	88,9
Shahrisabz sh.	9 949,9	91,4	-	-	9 949,9	91,4

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 770,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **25,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **394,1** mlrd. so'mni (**54,1 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 376,1** mlrd. so'mni (**8,4 %** ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes subyektlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Koson (**436,9** marta) Kitob (**826,2** marta) va G'uzor tumanlarida (**47,0** marta) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Koson (**126,0** %), Shahrisabz (**111,6** %), Qamashi (**111,2** %), G'uzor (**106,5** %) va Yakkabog' (**101,1** %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	1 770,2	75,0	394,1	45,9	1 376,1	91,6
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	69,2	106,5	9,5	47,0 m.	59,7	92,2
Dehqonobod	22,1	86,9	-		22,1	86,9
Qamashi	64,5	111,2	28,7	148,2	35,8	92,6
Qarshi	85,2	90,8	18,5	83,7	66,7	92,9
Koson	105,0	126,0	28,9	436,9 m.	76,1	91,3
Kitob	66,3	97,0	4,9	826,2 m.	61,4	89,9
Mirishkor	54,8	76,2	30,6	68,4	24,2	89,3
Muborak	41,1	53,4	12,3	27,2	28,8	90,6
Nishon	35,0	53,4	10,5	26,8	24,5	92,5
Kasbi	42,1	65,4	21,5	51,5	20,6	91,0
Chiroqchi	92,3	91,2	-	-	92,3	91,2
Shahrisabz	54,4	111,6	10,4	40,0 m.	44,0	90,7
Yakkabog'	50,2	101,1	4,4	18,3 m.	45,8	92,8
Qarshi sh.	901,0	64,6	214,0	33,2	6,9 m.	91,6
Shahrisabz sh.	87,0	91,8	-	-	87,0	93,1

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **1 376,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **8,4** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **77,7** % ni tashkil etdi.

